

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 274 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,
Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan
Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation
Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute
Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE
Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE
Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University
Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan
Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan
Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE
Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute
Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia
Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction
Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA
Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey
Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirova	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiysi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari..... Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	133
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maximudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari.....	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach.....	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	

MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN- TO'G'RI XORIJIY INVESTISIYA VA XORIJIY KREDITLAR JALB QILISH SAMARADORLIGI TAHLILI

Maksudov Abdumalik Xodievich

O'zbekiston Respublikasi

Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi

Annotatsiya: Ushbu maqolada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligining tahlili keltirilgan. Kimyo sanoati korxonalari misolida xorijiy kreditlar va moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlarining o'zaro ta'siri o'rjanilan. Xorijiy investisiya jalb qilish orqali samaradorlikni oshirish yo'llari to'g'risida ilmiy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investisiya, xorijiy kreditlar, kapital samaradorligi, aktivlar samaradorligi, investisiyaviy jozibadorlik.

Abstract: This article presents the effectiveness of attracting foreign direct investment and foreign loans. The interaction of foreign loans and financial efficiency indicators was studied on the example of chemical industry enterprises. Scientific conclusions are presented on ways to increase efficiency by attracting foreign investment.

Key words: foreign investment, foreign credit, capital efficiency, asset efficiency, investment attractiveness.

Аннотация: В данной статье представлена эффективность привлечения прямых иностранных инвестиций и иностранных кредитов. На примере предприятий химической промышленности изучено взаимодействие внешних займов и показателей финансовой эффективности. Представлены научные выводы о путях повышения эффективности за счет привлечения иностранных инвестиций.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, иностранные кредиты, эффективность капитала, эффективность активов, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Biz faqat investisiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to'planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investisiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investisiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lmog'i lozim", deb ta'kidlab, xorijiy investisiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirish-dagi g'oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilishning dolzarbligini e'tirof etadi.

Bugungi kunda ishlab chiqarishning holati, milliy iqtisodiyot korxonalarining asosiy vositalarining holati va texnik jihozlanish darajasi, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish imkoniyati hamda ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish investisiya siyosatining samaradorligiga bog'liq. Investisiyalar korxonalarni, alohida tarmoqlarni va umuman iqtisodiyotni rivojlantirish uchun asosdir, chunki hozirgi vaqtida milliy iqtisodiyotning texnik va texnologik darajasi past, ishlab chiqarish va sanoat tarkibi noaniq, asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvati eskirgan bir vaqtida korxonalar uchun zamon talablari darajasiga moslashish uchun kerak resurslarni ta'minlaydi.

Chet ellik sarmoyadorlar, xorijiy kreditorlardan farqli ravishda o'zlarining investisiyalariga qo'shimcha ravishda mamlakatga sivilizasiyalashgan bozor elementlarini: yuqori sifatli menejment, boshqaruva tajribasi,



marketing, innovasion resurslar, axborot texnologiyalari, xalqaro hamkorlik standartlari, ular o'rnatgan aloqlar va savdo yo'nalishlari orqali jahon bozoriga chiqish imkoniyatlarini olib kelmoqdalar.

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon amaliyotida, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya jalg qilish samarajorligi borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tadqiqotlarda xalqaro moliya bozorlariga kuchli integrasiyalashuvni taminlash orqali xorijiy investision banklar va fondlar bilan investisiyaviy yo'nalishda hamkorlikni rivojlantirish, hamda xorijiy kreditlar va investisiyalarni jalg qilishni rivojlantirish muammolari va afzalliklari belgilab berilgan.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy investisiyalarni jalg qilish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini shakllantirish doirasidagi qator tadqiqot izlanishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan C. Liesbeth, M. Miet, S. Jo ilmiy izlanishlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilar fikricha, o'tish davri mamlakatlarida iqtisodiyotni liberalallashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalg qilish tizimini takomillashtirishning muhim omili hisoblanadi. To'g'ridan-to'g'ri kapitalni to'plash va texnologik nou-xau orqali milliy korxonalarga texnologiyalar va bilimlarni jalg qilinishi iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini ta'minlaydi¹.

M.V. Charaevaning ilmiy tadqiqotlarning real sarmoyalarni moliyaviy boshqarish jarayonlarning konseptual asoslari o'rganilgan. Innovasion yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida real sarmoyalarni strategik moliyaviy boshqarish xususiyatlari bayon etilgan².

D.Sh. Bababekova, B.O. Tursunov tadqiqotlarda faol investision jarayonlarni raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishdagi o'rni, faol investisiyalar orqali raqobatbardosh iqtisodiyotni shallantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari o'rganiladi.³

F.U. Umarov tadqiqotlarda iqtisodiyotning tegishli tarmoq va sohalariga investisiya jalg qilish ko'lamenti kengaytirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.⁴

M.B. Xamidulin ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalg qilingan investisiyalar samaradorligi tahlillari asosida mamlakat iqtisodiyotini modernizasiyalash jarayonini moliyalashtirish xususiyatlari bayon qilin-gan⁵.

S.E. Elmirzaev tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda aksiyadorlik kapitaliga xorijiy investisiyalarni jalg qilish samaradorligi, aksiyalarni xalqaro bozorlarga chiqarish orqali kapital jalg qilish yo'nalishlari bayon etilgan⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalg qilish samaradorligini oshirishga doir mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Aksiyadorlik jamiyatlar yangi loyihalarni xorijiy kreditlar va xorijiy investisiyalar orqali moliyalashtirish samaradorligi "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ misolida o'rganildi.

Ushbu korxona asosiy kaliy o'g'itlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, uning maxsuloti ichki bozorga va eksportga yo'naltiriladi. Agrar soha uchun korxona maxsuloti juda zarur bo'lgani va bozor talabi qoniqarli bo'lismiga qaramay korxona moliyaviy barqarorligi va samaradorlik ko'rsatkichlarida qator muammolar borligini ko'rshimiz mumkin. Xususan, yildan-yilga sotishdan sof tushum barqaror ravishda oshib borganiga qaramay korxona sof foydasi oshmagan.

1 Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009 DOI: 10.4324/9780203076880 <https://www.researchgate.net/publication/237244956>


2 Чараева М.В. Финансовое управление реальными инвестициями организаций: учебное пособие / М.В. Чараева. Москва: Альфа-М, 2014. 240 с.

3 Бабабекова Д.Ш, Турсунов Б.О. Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш орқали рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш йўналишлари. Илмий- оммабоп рисола. Т. "Иқтисод-Молия" 2019, 40 б.


4 Усаров Ф.У. Инновацион-инвестиция фаолияти тадбиркорликнинг муҳим омили. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. №1, январь 2018 йил.

5 Хамидулин М.Б. Основные направления оптимизации структуры финансирования экономики узбекистана современная наука: актуальные проблемы и пути их решения №1, январь 2019 г.

6 S. Elmirzaev The practice and analysis of mass positioning of shares of joint-stock companies PRACTICE, 2019.

1-rasm. "Dehqonobod kaly zavodi" AJ asosiy faoliyat ko'rsatkichlari, mlrd.so'm.⁷

Ushbu holat sababini uning balans ko'rsatkichlaridan qidirganimizda uzoq muddati debitor qarzdorligining oshib ketishi hisobiga korxona joriy aktivlaridan deyarli maxrum bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa, valyuta kursidagi farq evaziga korxonaning moliyaviy faoliyatdan olgan zarari korxona rentabellik ko'rsatkichlarining tushib ketishiga sabab bo'lishi, uning aylanuvchanlik ko'rsatkichlarida yaxshilanish alomatlarining paydo bo'lishi aslida aktivlardan samarali foydalanimayotganligini anglatadi.

2-rasm. Korxona balans ko'rsatkichlari, mlrd.so'm.⁸

Korxona moliyaviy holatining yomonlashishiga yana bir sabab chet el valyutasida olingan bank krediti bo'lib, u bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi korxonaning moliyaviy faoliyatdan olayotgan zararini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu kreditlar:

- Xitoy Eksimbanki tomonidan Xitoy Hukumatining imtiyozi kredit liniyasi doirasida 110,5 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit,

- 128mln. AQSh dollari miqdoridagi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan

7 yil muddatga qayta moliyalashtirilgan, shu jumladan, 3 yillik imtiyozi davr bilan yillik 2,25 foiz stavkasi bilan hamda bank marjasi qo'shilgan holda moliyalashtirish jalb qilingan.

"Dehqonobod kaly zavodi" AJ loyihalarni moliyalashtirish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar jalb qilinmagan, balki davlat kafilligi asosida xorijiy moliya institutlarining mablag'lari jalb etilgan. Bu mablag'lar evaziga, asosan, Xitoyda ishlab chiqarilgan uskunalar sotib olingan. Hozirda zavodning 2-bosqich loyihasi ya'ni elektr ta'minotidagi va osma kanat yo'li qurilishi ishlari to'liq yakunlanmagan, qayta ishlash majmuasi esa ishchi holatga keltirilgan. Buning natijasida etarli xomashyo bilan ta'minlanmaganligi hisobiga korxona asosiy ishlab chiqarish tsexlari to'liq quvvatda ishlash imkoniyatini yo'qotmoqda, lekin ishlab chiqarish xarajatlariga qayta

7 Korxona moliyaviy xisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


8 Korxona moliyaviy xisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



ishlash majmuasi uskunalarining amortizasiya xarajatlari va boshqa doimiy xarajatlari, moliyaviy xarajatlar, kredit yuklamalarini qo'shib hisoblashga majbur bo'linmoqda va buning natijasida korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi jahondagi etakchi kaliy xlor ishlab chiqaruvchi korxonalardan ancha yuqori bo'limoqda. Natijada korxona mahsulotini eksport qilish imkoniyati tobora pasayib bormoqda va korxona iqtisodiy samaradorligi juda past bo'lib qolgan.

Korxonaning valyutada olingan kreditlarini muddatidan oldin yopish va moliyaviy faoliyatdan olinayotgan zararni sezilarli ravishda kamaytirish va ohir-oqibatda sof foydaning sezilarli ravishda oshirishga imkon berar edi. Masalan, 2019-yilda foiz to'lovlari 32,6 mlrd. so'mni, sof foyda esa

5,6 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, bank kreditlarining muddatidan oldin yopilishi va foiz to'lovlari bo'yicha iqtisod qilinadigan mablag' hisobiga sof foydani bir necha barobar oshirishga muvaffaq bo'linar edi.



3-rasm. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJning 2016–2020-yillarda o'rtacha sotish rentabelligi ko'rsatkichining qisqa muddatli likvidlik koeffisientiga korrelyasiysi.⁹

Foiz to'lovlardan qutulish korxonaning qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga sabab bo'lar edi. Bu esa rentabellik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Darhaqiqat, sotish rentabelligining qisqa muddatli likvidlik koeffisientiga bog'lanishini tadqiq qilganimizda ular orasida korrelyasiya darajasi 0,9276 ekanligi topildi. Umuman olganda, muallif fikricha, korxonaning boshqaruv tizimida, xususan, moliyaviy va investision menejment sohasida jiddiy muammolar mavjud.

Kimyo sanoati korxonalaridan biri bo'lgan "Maksam-Chirchik" AJning aksiyalarining xorijiy investisiya jalg qilinishi evaziga korxonaning boshqaruv faoliyatidagi va iqtisodiy ko'rsatkichlarida katta o'zgarishlar ro'y berdi. 2007-yilda Chirchiq shahridagi "Elektrkimesanoat" AJ aksiyalarining 49% Ispaniyaning "Maxam Corp, International S.L" kompaniyasiga investisiya kiritish sharti bilan sotildi va jamiyat nomi "Maksam-Chirchik" AJga o'zgartirilgan edi. Shundan so'ng Kimyo sanoati korxonalarining 2007–2011-yillar davrida modernizasiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturiga binoan uchta yirik loyiha amalga oshirildi.

"MaxamCorp, International S.L" kompaniyasi tomonidan "Maksam-Chirchiq" AJda faqatgina ishlab chiqarish jarayoni uskunlari modernizasiya va rekonstruksiya qilinib qolmasdan korxonaning boshqaruv jarayoni ham o'zgartirildi va korxonaga korporativ boshqaruv joriy qilindi. Bu, o'z navbatida, samarasini berdi. Buni korxonaning so'nggi yillardagi faoliyatining samardorligining oshishida ham ko'rishimiz mumkin (3.1-jadval). Korxonada olib borilgan rekonstruksiya ishlari natijasida va mahsulot tannarxini pasaytirishda erishilgan yutuqlar, davr xarajatlarining kamaytirilishi, moliyaviy faoliyatning boshqa xarajatlarining qisqartirilishi, soliq siyosatining to'g'ri olib borilganligi va davlat tomonidan yaratilgan sharoitdan to'g'ri foydalanilgani evaziga va boshqa soliqlar turining kamaytirilganligi evaziga jamiyatning sof foydasi

2018-yil 57,4 mlrd. bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatgich 123,3 mlrd.gacha oshirilgan. Shunga nisbatan korxonaning rentabellik ko'rsatgichlari 2018-yil 9,19 % bo'lgan bo'lsa, 2019-yilda bo' ko'rsatgich 13,24%ga oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalarga kredit o'rniiga xorijiy investisiyalarni jalg qilish nafaqat qo'shimcha moliyalashtirishni jalg qilish, balki yanada samarali boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etish orqali iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishga imkoniyat beradi.

⁹ Муаллиф ишланмаси.



Xorijiy investorlarning investision qaror chiqarishlari uchun korxona holati to'g'risida zarur axborot bilan ta'minlash uchun iqtisodiy, mulkiy, moliyaviy holati va o'tgan davr faoliyati natijalari haqidagi raqamli va tushuntirish matnlaridan iborat hisobotga ehtiyoj tug'iladi.

Jahon amaliyotida investorlarni jalg qilishning samarali axborotiy usullaridan biri – investisiyaviy tizerni tayyorlash va uni potensial investorlarga taqdim etishdir. Investisiyaviy tizer investisiya jalg qiluvchi va investor o'rtaсидаги муносабатлар занжиридаги дастлабки bo'g'in hisoblanuvchi eng birinchi hujjatdir.

Xulosa o'rнida ta'kidlash mumkinki, har qanday tarmoqqa kredit jalg qilgandan ko'ra xorijiy investisiya va zamonaliviy boshqaruvni jalg qilish orqali korxonalarda modernizasiya va rekonstruksiya ishlarining to'g'ri olib borilishi korxonalarning iqtisodiy samaradorligining o'sishi uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси, 2018 йил 29 декабр № 271-272 (7229-7230) сони.
2. Liesbeth Colen, Miet Maertens and Jo Swinnen. Foreign direct investment as an engine for economic growth and human development: A review of the arguments and empirical evidence. January 2009.
3. Чараева М.В. Финансовое управление реальными инвестициями организаций: учебное пособие / М.В. Чараева. Москва: Альфа-М, 2014. 240 с.
4. Бабабекова Д.Ш, Турсунов Б.О. Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш орқали рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш йўналишлари. Илмий-оммабоп рисола. Т. "Иқтисод-Молия" 2019, 40 б.
5. Усаров Ф.У. Инновацион-инвестиция фаолияти тадбиркорликнинг муҳим омили. "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. №1, январ 2018 йил.
6. S. Elmırzaev The practice and analysis of mass positioning of shares of joint-stock companies. PRACTICE, 2019.
7. Хамидулин М.Б. Основные направления оптимизации структуры финансирования экономики Узбекистана современная наука: актуальные проблемы и пути их решения. №1, январ 2019 г.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

